

“O‘ZBEKISTONDA BANK TIZIMI VA UNI ISLOM MOLIYASI ORQALI YANADA TAKOMILLASHTIRISH”

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: xonshams@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bank haqidagi umumiy tushunchalar va ilmiy nazariyalar. Shuningdek, O‘zbekistonda islom banklarining faoliyatini boshlashga bo‘lgan takliflar va hozirgi kunda islom qoidalariga asoslangan bank sohlarining iqtisodiyotdagi o‘rni. Qolaversa, olimlarning qarashlari, farqlari hamda ahamiyatining dolzarbligi.

Kalit so‘zlar: Bank, iste‘mol kreditlari, overdraft kreditlar, mikroqarzarlar, islom banklari, sudxo‘rlik, murobaha.

АННОТАЦИЯ

Общие понятия и научные теории о банковском деле. А также предложения по началу деятельности исламских банков в Узбекистане и роли исламского банковского сектора в экономике на сегодняшний день. Кроме того, мнения, различия и актуальность ученых.

ABSTRACT

General concepts and scientific theories about banking. Also, proposals to start the activity of Islamic banks in Uzbekistan and the role of the Islamic banking sector in the economy today. In addition, the views, differences and relevance of scientists.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan, taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqisiga chiqayotgan bir davrda yashar ekanmiz, bank va moliya sohalari nafaqat jahon iqtisodiyotida, balki, O‘zbekistonda va har birimizning hayotimizda muhim ro‘l kasb etmoqda. Atrofga qunt bilan nazar soladigan bo‘lsak, albatta, yurtimizda bank kredit tizimini har tomonlama jadal rivojlantirish va isloh qilish bo‘yicha turli chora tadbirlar amalga oshirilayotgani hech kunga sir emas. Hammamizga ma‘lumki, moliyaviy vositachi hisoblangan banklar jahon tajribasida turli xil xizmatlarni foiz evaziga yoki foizsiz tarzda taklif etishlari mumkin. Afsuski, yurtimizda bank tizimi kundan kunga isloh qilinib, turli xil yangiliklar va imtiyozlar berilayotgan bo‘lsada, hali ham bugungi kunda hattoki jahon iqtisodiyotida va amaliyotida dolzarb bo‘lgan, islom moliya tizimiga asoslangan islomiy banking tizimi bizda amal qilayotgani yo‘q.

Albatta, islom banklari O‘zbekistonga ham kirib kelishi va o‘zining xizmatlarini bizning yurtimizda ham targ‘ib qilinishi uchun bir qator strategik maqsadlarni qo‘yish va shunga muvofiq tarzda muammolarni bartaraf etish lozim. Shuning uchun ham yurtimizda bank kredit tizimini yanada takomillashtirish va asosan foizli kreditlarni kamaytirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda parlamentga murojaat nomasida “Islomiy Tijorat banklari” yurtimizda o‘z faoliyatini boshlashini ta’kidlab o‘tgan edilar va shu unosbata bilan O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini tashkil etish bo‘yicha takliflar o‘ranilmoqda.

Bank aslida moliyaviy muassasa hisoblanib, jamiyatimizdagi vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini tegishli shartlar orqali jalb etib, mana shu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarishlik, muddatlilik, to‘lovlik va ta’minlanganlik asosida beradigan moliyaviy institutdir. Bundan tashqaru banklar korxonlarga ham kredit, ssuda berish, naqd pulsiz hisob kitoblarni amalga oshirish, pul va turli xil qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshiradi. Bank lotincha ansa so‘zidan olingan bo‘lib, sarrof peshtaxtasi degan ma’nolarni anglatadi va kredit moliya muassasi hisoblanadi. Bank tizimi birinchi bo‘lib Angliyada XI asrda yuzaga kelgan. O‘zbekistonda birinchi bank muassasasi 1875-yil Toshkentda ochilgan Rossiya imperiyasi davlat bankining filiali edi. 1924- yil O‘zbekistonda bank tizimi sobiq SSSR ning tarkibiy qismi sifatida tashkil etildi va 1991-yilga kelib 15-fevralda Respublika Oliy Kengashi sessiyasida Respublikamizdagi bank faoliyatining huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan “Banklar va bank to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. 1994-yil milliy valyutaning joriy etilishi bank tizmining yanada rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. 1996-yildan e’tiboran Markaziy bank monetary siyosat va bankni nazorat qilish huquqlariga ega bo‘ldi. 2000-yillarga kelib valyuta siyosati yanada liberallashtirdi va buning natijasida birjadan tashqarida bo‘lgan valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi amal qila boshladi. Mazkur mexanizm tufayli banklar mustaqil ravishda o‘z mijozlari bilan shartnoma orqali valyuta ayirboshlashni yo‘lga qo‘ydilar. Bundan tashqari “2005-2007- yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish va rivojlantirish dasturi” da belgilab qo‘yilgan qonun qoidalarni amalga oshirilishi natijasida banklarning kapitallasuvi va libralashuvi yanada tezlashdi. Xorijiy va mahalliy ekspertlarning fikricha, oxirgi 10 yillikda yurtimizda ixtisoslashuvdan uzoqlashish va bank tizimini universallashtirish chuqurlashgani kuzatilmoqda va bugungi kunga kelib banklarning juda ko‘plab kredit turlari va xizmatlaridan foydalanishimiz mumkin.

Banklarning bir becha turlari mavjud va har biri o‘ziga yarasha xizmatlarni taklif qilib kelmoqdalar. Ulardan eng asosiysi bu markaziy bankdir. U mamlakatdagi jami kredit tizimi ustidan nazoratni olib boradi va davlat pul kredit siyosatini amalga oshiradi, naqd pul, shuningdek, qimmatbaho qog‘ozlarni emmissiya qiladi va bundan

tashqari, davlat, tijorat banklariga kredit ham berishi mumkin. Ikkinchi o'ringda tijorat banklarini ta'kidlab o'tadigan bo'lsak ular o'z navbatida yana ikkiga, ya'ni, universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi. Ixtisoslashgan bank investitsiya, jamg'arma va maxsus banklardan tashkil topgan bo'lsa, tijorat universal banklar shaxslarga turli xil bank xizmatlarini taqdim etadi. Keyingi o'rinlarda tashqi va islom banklarini misol qilib keltirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tashqi banklarni hozirgi kunda offshore banklar deyishimiz ham mumkin va ular past solikli, kam cheklovli davlatlarda joylashgan. Albatta, yuqorida keltirib o'tgan barcha banklarning asosiy vazifasi kredit berishda iboratdir. Kredit haqida so'z yuritish ekanmiz, avvalo, kredit o'zi nima degan savolga javob topish darkor. Kredit lotincha creditum so'zidan olingan bo'lib, qarz va credo-ishonaman degan ma'nolarni anglatib, bo'sh turgan pul mablag'larini, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama foiz to'lagan holda qaytarib berish sharti bilan taqdim etiladigan ma'lum muddatga berilgan qarz hisoblanadi. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida ko'pchilik olimlar tomonida tahlil qilingan, hamda ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan. Jumladan, V.Voznesenskiy, A.Zverov kabi olimlarning fikricha, kredit maxsus kategoriya bo'lsada, moliya tarkibiga kiradi deb hisoblashsa, Zaxarov, O.Lavrushin, M.Pesel, V.Ribin kabi olimlar kreditni moliya bilan parallel ravishda faoliyat ko'rsatuvchi mustaqil kategoriya sifatida qarashgan. Ya'ni Zaxarovning fikricha, "Kredit vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qiymat bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatdir" deb ta'riflanadi. Qodirov va Pessel esa aksincha kredit- ishlab chiqarish munosabatlarida o'z aksini topadi va to'lovlik sharti bilan beriladi deb ta'kidlab o'tishgan. Albatta, qaysidur olimning fikrini xato deyishning o'zi notog'ri. Chunki har bir inson o'z qarashlariga egadir va bu fikrlarni umumlashtirgan holda kreditning ba'zi muhim va ahamiyatli tomonlari aniqlangan. Xususan, A.Marshall ham kredit haqida o'zining fikrlarini bayon qilgan: "Kreditni qayta taqsimlash funksiyasi amal qilishida pulning jamg'arma funksiyasining bevosita ta'siri mavjud. Odamlar sotib olish imkoniyatiga ega bo'lsalar ham, pulni ishlatmasliklari mumkin". Ko'rinib turibdiki bu Sey qonunini butunlay inkor etmaydi ya'ni, barcha fikrlar qaysidir ma'noda bir birini to'ldirib yaxlitlik hosil qiladi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistondagi banklarda kreditlarning tijorat, davlat, ist'mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari mavjud. Eng quvonarlisi, so'nggi yillarda jismoniy va yuridik shaxslarga umuman olganda bank kredit tizimini yanada rivojlantirish, aholini moliyaviy tomondan yanada qo'llab quvvatlash maqsadida mikro-online kredit berish va mikroqarzlarni, overdraft kreditlarini berish yo'lga qo'yildi. 2017-yili overdraft kreditlarini bank plastic kartasi orqali berish Markaziy bank tomonidan tasdiqlandi. Yevropa davlatlarida aholi bu kabi kreditlardan juda ko'p foydalanadilar. Aslida, overdraft krediti mijozlarga plastic kartochkalaridagi bor mablag'dan ortiq miqdordagi mablag'ni sarflash imkonini beradi. Ya'ni pensiya yo'riq

haqi kartasi orqali pul mablag'ingiz qolmagan bo'lsa ham to'lovlarni amalga oshirishingiz mumkin. Hisobingizga pul tushishi bilan vaqtincha ishlatilgan pullar shartnomada belgilangan foizlar orqali yechib olinadi va foizlar faqat amalda ishlatilgan pullar bo'yicha hisoblanadi. Bu kredit turining boshqalaridan asosiy farqi kreditning qisqa muddatliligidir. Masalan, iste'mol kreditini har safar pul kerak bo'lganda qayta rasmiylashtirish talab etiladi. Bundan tashqari hozirgi kunda is'temolchilarning vaqtlarini tejayotgan online kreditlar bizga har tomonlama qulaylik yaratmoqda. Umumiy qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda 33ta bank jumladan, 12 ta davlat ulushiga ega, 15 ta xususiy va 5 ta xorijiy banklar bor. Shu bilan birga capital zaxirasi 1,5 mlrd dollarni tashkil etadi, bu esa NPL ni 1,6 barobarigacha va kredit portfelini 5 foiz miqdorida qo'shimcha zaxiralarini yaratish imkonini beradi. 2 yil ichida O'zbekistonda 3 ta raqamli TBC bank, Anor bank, Apelsin banklari vujudga keldi. Tadbirkorlar o'z to'lovlarni 85% ini masofaviy amalga oshiradilar bu esa 2017 yildan beri 7 barobarga o'sgan. 2025 yilga qadar Ozbekistonda bank tizimidagi xususiy sektor ulushini 18 foizdan 60 foizga oshirish rejalashtirilmoqda. Yurtimizda kundan kunga bank kredit tizimi takomillashib borayotgan bo'lsada bir qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay shu paytgacha O'zbekistonda islom moliyasi sohasi deyarli rivojlanmagan. Vaholanki bu soha rivojlanishiga mamlakatimiz juda kata salohiyatga ega va bu yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlari ekspertlari tomonidan ham tan olingan. Jumladan, Islom Taraqqiyot Banki(IsDB), Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish(ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi(ITFC), Islom tadqiqotlar va treninglar instituti(IRTI) islom moliyasini rivojlantirishda hozirgi kunga qaradar mamlakatimizga 2 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'larni yo'naltirganlar. Biznes vakillari tomonidan Islom moliyasiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida O'zbekiston 2003 yilda IsDB ga va 2004 yilda ICD ga a'zo bo'ldi va bu islom moliyasining O'zbekistonga kirib kelishiga zamin yaratdi. 2019 –yilda birinchi bo'lib islomiy sug'urta kompaniyasi faoliyatini boshladi, MDH davlatlarida birinchilardan bo'lgan elektron Murobaha – savdo bitimi asosida moliyaviy mahsulot platformasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari islom moliyasi haqida insonlarning bilimlarini kengaytirish maqsadida “ Islom moliyasi” telegram sahifasi yaratildi. Islom moliyas davlatimizga kirib kelar ekan, avvalo, bu bank kredit tizimini yanda isloh qilishga juda kata xissasini qo'shadi. Ya'ni, yurtimizda islomiy bankingga ehtiyoj juda kata va bu allaqachon ko'plab mamalakatlarda rivojlanib bo'ldi. Islomiy banking bu shariat tamoyillariga asoslangan va islomiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali amaliy qo'llanma hisoblangan bank faoliyati turi hisoblanadi. Bu tizimda shariat qayd qilgan yoki to'langanligidan qat'iy nazar kredit berish uchun belgilangan foizlar yoki qo'shimchalar olishni man etadi. 2009 yilga kelib dunyo bo'yicha 300 dan ortiq islomiy banklar vujudga keldi.

Yurtimizda “Ipak yo‘li” banki bilan Islom banki o‘rtasida hamkorliklar olib brilmoqda va bu murobaha prinsplariga muvofiq ta‘minlash uchun liniyalarni taqdim etadi. Murobahaning ishlash tizimi quyidagicha: mijoz sotib olishga kelishib olgan shartlar bo‘yicha kerakli tovarlarni olish un bankka murojaat qiladi va bank tovarlarni sotib oladi, mijozga esa qo‘shimcha haq evaziga uni qismlarga bo‘lib sotadi. Bundan tashqari, islomiy moliyada Mudoraba, Mushoraka, Ijara, Salam kabi sukuk turlari mavjud va bularni yaqin kelajakda O‘zbekistonda ham paydo bo‘lishi har tomonlama foyda bo‘adi. Islomiy banking umuman islom moliyasida foiz, noaniqliklar, qimor va alkogol, narkotik kabi faoliyat turlari bilan shug‘ullanish taqiqlangan. Islomiy baking tizimini asosiy xususiyatlaridan biri bu moddiy manfaat, iqtisodiy foydadan oldin, axloq qadriyatlari ustun xisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda islomiy banking tizimiga muhtoj bo‘lganligimiz uchun ham 6 ta tijorat banki islom darchalarini ochish bo‘yicha ishlar olib bormoqdalar. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarimizga ko‘ra islom banki xizmatlarining joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni tuxfa qilishi mumkin:

- Xorijdan kirib kelayotgan investitsiyalarni diversifikatsiyalash va ko‘roq jalb qilish
- Bank tizimini yanda shaffoflashtirish va halolashtirish
- Aholi va biznes vakillari hisobidagi barcha bo‘sh turgan mablag‘lardan maksimal foydalanish
- Ko‘plab ish o‘rinlarini yaratish, aholi moliyaviy islomiy salohiyatino oshirish
- Islom moliya bank xizmatlari orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish
- Yangi moliyaviy muassasalarni tashkil qilish
- Yangi yo‘nalishlarda kadr tayyorlash va kambag‘allikni qisqartirish

Albatta ishonamizki, islomiy banking tizimini mamlakatimizga kirib kelishi natijasida O‘zbekiston MDH davlatlari o‘rtasida yetakchilik qilishi mumkin. Xulosa qilib aytsak, islomiy banking xizmatlar sohasi yurtimizning porloq keljagi uchun muhim shart sharoitlar yaratib, poydevor va yanda rivojlanish istiqboli bo‘ladi . Hamda mana shu ishlarning natijasida, O‘zbekiston madaniyatida islomning chuqur ildizlari aks etgan mamlakat hisoblanib o‘z jozibadorliligi bilan xorijiy investorlarni yanda ko‘proq jalb qila oaldi. Bu imkoniyat orqali davlatimiz aholi farovon hayoti barqaror rivojlanishiga kata qadamlarni qo‘ya oladi desak adashmaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Pul kredit va banklar. Darslik /A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti.-T:” Iqtisod- Moliya”, 2012. – 324 b.
2. “Banklar va bank faoliyati haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. T. “O‘zbekiston”- 1996.
3. Moliya bozori: Darslik/ S. Elmirzayev va boshqalar; - T: “Iqtisod –Moliya”, 2019-324 b.

4. СукукюШариатский стандарт№1/ Пер с англ;[Ред совет:Р.Р Вахитов и др] ; Орг. Бухючетаи аудита исламских фин. Учреждений (AAOIFI). –М : Исламская книгаб 2010. – 40с.
5. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
6. <https://civil.uz/overdraft-krediti-nima/>
7. <https://lex.uz/acts/-2681>
8. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/08/03/ozbekiston-islom-moliyasi-sohasida-mdh-yetakchisiga-aylanishi-mumkin>